

QORAQALPOQ, YOZYOVON CHO'LLARINING GIRDOGRAFIK HOLATI

*Abduqodirova Yoqutxon Usmon qizi**Mirzo Ulug'bek nomidagi o'zbekiston Milliy universiteti Magistiranti*Yoquthon82@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqalaning mazmuni Farg'ona vodiysining yer osti suvlarning holari va uning ta'sirda Markaziy Farg'ona cho'llarning gidrografik holati haqida keng yoritilgan. Shuningdek, yer osti suvlari, yer ustida shakillangan kanal, zovur va kichik ariqlarning sistenasini o'rganishdan iborat.

Kalit so'z: gidrografik, yer osti suvlari, drenaj- kallektor, kanall, zovur, kichik ariqlar, sug'oriladigan yerlar, meliorativ tadbirlar.

HYDROGRAPHIC SITUATION OF KORAKALPOK, YAZYOVON DESERTS

Annotation: the content of this article covers the conditions of underground waters of the Ferghana Valley and the hydrographic condition of the Central Ferghana deserts under its influence. It also consists of studying the system of underground waters, channels formed on the ground, ditches and small ditches.

Key words: hydrographic, underground water, drainage-collector, canal, ditch, small ditches, irrigated lands, melioration activities.

Vodiy o'ziga xos gidrografik xususiyati ega bo'lgan o'lka hisoblanadi. Shunga ko'ra Markaziy Farg'ona cho'llarning gidrografik sharoiti ham butun vodiyning gidrografik sharoitga mos holatda shakillangan. Hududning yer osti suvlarning holati, uning tarkibi va rejimi. Vodiyning turli hududlarda bir-biridan farqlanadi. Har bir hududning rivojlanishida yer osti suvlarning ahamiyati katta. Farg'ona vodiysining yer osti suvlarning rejimi, ularni taminlanishi, miqtori ko'rsatkichlari, harakat yo'nalishi va suvning kimyoviy tarkibi bo'yicha ikkita tipga ajratiladi.

➤ Sirdaryo terassasi bilan bog'langan, o'zining suv rejimi va miqtorida daryo o'z rejimini ko'rsatuvchi yer osti suvlari.

➤ gidrogiologik zo'na Shohimardon va Marg'ilonsoy konus yoyilmalarini o'z ichiga olgan joylar. Bu hududa sizot suvlarning sathi 1,5-3 metr yetadi chunki zonaning katta maydonida drenaj-kallektor sistemasining mavjudligi natijasi hisoblanadi. Qum massivlari va prolyuvial tekisliklarda sizot suvlari chuqurligi (1,3-2,3) metrga yetadi. Yirik kallektorlarning atrofida chuqurligi 5-6 metrga yetadi. Suvlarning minerallashish darajasi o'rtacha (1-2,5 gr/litr) ba'zida (3,6 gr/litr) ni tashkil qiladi. Sug'oriladigan yerlarda (3,0-6,1gr/litr), yangi o'zlashtirilgan yerlarda (13,2-

16.6 gr/litr) tashkil etadi. Tuz miqtori sug'oriladigan yerlardagi suvlar tarkibida (4-6 gr/litr) dan oshmaydi. Yangi o'zlashtirilgan va o'zlashtirishga tayyorlanyotgan yerlarda (4,5-20 gr/litr) tashkil qiladi [1].

Iqlimga mos holatda hududning ichki suvlari ham shakilangan. Vodiyning tabiiy geografik joylashuvdan kelib chiqqan holatda daryolar va boshqa suv obyektlari joylashgan. Qoraqalpoq, Yozyovon cho'llarida daryolar ko'p emas. Faqat cho'llarning markaziy qismidan Sirdaryo oqib o'tadi. U Norin daryosi va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Cho'llar hududan daryo seki va yoyilib ilon izi bo'lib oqadi. Daryoning sohillarda kichik o'rmonlar ya'ni to'qayzorlar va saksavulzorlar o'sadi. Sirdaryoning suvi aprel oyidan boshlanib iyun oyigacha sersuv bo'lib oqadi. Qish oylarida suvi kamayadi, bahor oylarida suvi ko'paydi va shu davrda qirg'oqlaridan toshadi daryo maydoni 2-3 barobarga ortadi, atrof hududlarni daryo suv ostida qoplaydi. Daryoning yonbag'rida suv qaytishi va yo'nalishini o'zgartirishi tufayli kichik orolchalar va ko'llar hosil bo'ladi [2].

Cho'llarda doimiy oqar suvlar hosil bo'lmaydi. Faqat antropogen kuch ta'sirida qazilgan kanallar, tashlama kallektorlar, zovurlar va kichik ariqlar mavjud. Ulardan barchasi qishloq xo'jaligi yerlarni suv bilan taminlash, yerlarni meyorativ holatini yaxshilashda maqsadlarda foydalaniladi. Qoraqalpoq, Yozyovon cho'llarda Katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanali, Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanal, K. Sattorov kanal, Sariqsuv kanali, Oxunboboyev nomli, Ulug'nor, Namangan kanali qazilgan. Kalektordan Yozyovon, Sariqsuv, Sarijoga, Qiziltepa, Fapbiy, O'rta Qiziltepa, Pastki Qiziltepa, Rishton Bog'dod, Katta Beshkapa, Yangiqadam, Achchiqko'l, Shimoliy Bog'dod, Qoraqalpoq, Mazgisoy Oqoltin, Zanbarko'l va boshqa kalektorlar mavjud bo'lib, undan tashqari kichik ariqlar ham bor. Yozyovon cho'lining markaziy qismida Markaziy Farg'ona suv ombori joylashgan.

Katta Farg'ona Kanali 1939-yilda umumxalq hashari orqali qazilgan. Farg'ona vodisidagi eng yirik gidrotehnik inshostdir. Uzunligi 357 km tashkil qiladi. Kanal Qirg'iziston hududidan Qordaryoda qurilgan Kuyganyor to'g'onidan boshlanadi. O'zbekiston hududida Namangan viloyatning Uchqorg'on shahri hududidan boshlanib, Andijon viloyatning shimoliy qismidan va Shahrihon tumaning janubiy qismi bo'ylab oqib o'tib, Farg'ona viloyati hududida Marg'ilon shahrining shimoli qismi va Qo'shtepa tumani hududidan, Oltiariq tumani Tinchlik shararchasidan, Rishton tumani shimoliy qismidan, Bog'dod tumani hududidan, Qo'qon shahrining janubidan, Yaypan tumaning g'arbiy qismi va Isfra soyining konus yoyilmasining quyi qismidan hududidan oqib o'tib. Tojigiston Respublikasining Konibodon shahrining shimoliy qismidan va Xo'jand shahri yaqinidagi Qayroqum suv omboriga yaqin bolgan hududlari boylab oqib o'tadi. Kanal Sirdaryoga parallel holda oqadi. U Norin, Qoraqaryo va So'x daryolardan suv to'playdi. Katta Farg'ona kanalining asosiy suvining sug'orishga sariflanadi [3].

Shimoliy Farg'ona kanali 1940-yilda eski kanallar hisoblangan Yangiariq (1820), Razenbax (1890), Anhor (1938) kanalari o'rnida xalq tomonidan xashar orqali qurilgan. Namangan viloyatning Uchqorg'on shahri yaqinida Norin daryosidagi Uchqo'rg'on to'g'onidan boshlanadi, Namangan shahrining markaziy qismidan o'tib, Pop tumaning markaziy qismidan Sirdaryoning shimoliy qismida unga yonama-yon oqish o'tadi, Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyati Asht tumani hududida tugaydi. Uzunligi 162,5 km tashkil qiladi, suv o'tkazish imkoniyati 103 m kub/sek tashkil etadi. Kanal suvidan Namangan viloyatning (71,5ming ga) Pop va Chust tumanlari, Tojigistonning Sug'd viloyatning Asht tumanidagi (45,8 ming ga) ekin maydonlarini suv bilan taminlaydi, [3]

Janubiy Farg'ona kanali 1940- yilda Farg'ona vodiysining sharqiy va janubiy qismi suv bilan taminlash maqsadida qazilgan. Uning uzunligi 120 km suv o'tkazish imkoniyat (110 m kub/sek) ni tashkil qiladi. Oloy tog'lardan oqib tushgan soylarning suvini tartibga solish maqsadida qurilgan. Kanal Shahrixonsoyning yirik shahobchasi hisoblanadi. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani hududidan oqib o'tadi, undan so'ng Marhamat tumaning janubiy qismi bo'ylab, O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasi bo'ylab oqib o'tadi, Farg'ona viloyatning Quva tumaning janubiy qismidan o'tib, Yangi Marg'ilon hududidan, Oltiariq tumaning Zilha va Povulg'on qishloqlarga yaqin masofada oqib o'tadi. Qirg'izistonning Aravan tumani hududi bo'ylab oqib o'tadi. Kanal suvidan (75,8 ming ga) yerlarni sug'orishda foydalandigan yirik irrigatsiya kanali hisoblanadi. Andijon viloyatida (25,2 ming ga), Farg'ona viloyatida (48 ming ga), Qirg'izistonda (2,6 ming) maydonlarni suv bilan taminlaydi [3].

Yozyovon cho'lining shimoliy qismida Yozyovon tumani hududida joylashgan .Markaziy Farg'ona suv ombori 2013-yili qurilgan. Irrigatsiya maqsadida qurilgan uning hajmi (100-500 mln m/kub) tashkil qilib, suv yuzasining hajmi (50-100 km /kub). Suv omborining suvdan Farg'ona viloyatining Buvayda, Bog'dod tumanlarni. Andijon viloyatining Ulug'nor, Mingbuloq tumanlardagi ekin maydonlarini sug'orish va hosildorlikni yaxshilash maqsadida qurilgan.

Sarijoga kallektori Andijon viloyatining Bo'z hududidan oqib o'tadi. 1936-yilda ishga tushirilgan bo'lib, uzunligi (17,2 km) suv o'tkazish quvvati (10m kub/sek). Pastki Qiziltepa kallektori 1949-yilda ishga tushirilgan, Oltiariq tumaning Qiziltepa hududidan oqib o'tadi. Uzunligi (18,2 km) suv o'tkazish quvvati (8m kub/sek). Shimoliy Bog'dod kallektori 1949- yilda o'z faolyatini boshlagan. Farg'ona viloyatining Buvayda tumani hududi bo'ylab oqib o'tadi va Sirdaryoga quyiladi. uzunligi (55,3 km) suv o'tkazish quvvati (3m kub/sek). Achchiqko'l kallektori 1970-yilda ishga tushirilgan. Namangan viloyatining Jamasho'y hududidan oqib o'tadi va Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi (317 km) suv o'tkazish quvvati (166 m kub/sek).

Oltiariq tumani hududidagi Qiziltepa (10-15g/l)gacha ma'danlashgan, alohida xususiyatga ega bo'lgan iste'mol uchun shifobaxsh hisoblanadi. Namangan

viloyatning Jamasho'y hududidagi suvlar aralash (10-15 g/l dan 35g/l) dan yuqori ma'danlashgan nomokob shifobahsh xususiyatga ega. Cho'llarda shifobaxsh mineral suvlar tarqalgan hududlar bor. O'zida foydali mineral moddalarni saqlovchi termik issiq buloqlar shaklida yer yuzasiga chiqadi. Ular 1500-3000 metr chuqurlikdan chiqib harorati 40-75°C tashkil etadi. Oltiariq tumanidagi Qiziltepa shaharchasida, Namangan viloyatning Jamasho'y hududida, Buvayda tumani Bostonbuva qishlog'ida, tarkibida turli mineral moddalar mavjud bo'lgan suvlar va shifobaxsh balchiqlar tarqalgan.

Aholi iste'mol qiladigan artezyan quduqlari qazilgan bo'lib u ichish uchun yaroqli bo'lgan bir suv manbai hisoblanadi. Ularni qazishda drenajlardan foydalaniladi. Bu yerdagi drenajlarning turi garizantal yopiq bo'lib, sug'oriladigan yerlarda garizantal drenajning solishtirma o'lchamlari 50-55m/ga. Gurunt va sizot suvlar yer betiga eng yaqin suvlar hisoblanib suv yuzasining yillik tebranishi 1-3 metr ba'zi joylarda 2 metrdan boshlab chiqdi yer betga chiqib qoladi. Ular iste'mol uchun yaroqsiz hisoblanadi. Ularning sathi oktab-noyabr oylarida ko'tariladi, may-iyun oylarga kelib pasayadi. Bu yer osti suvlari yog'in miqtoriga va boshqa omillarga bo'liq holatda ko'tarilib pasayadi.

Suvlar yer betiga yaqin bo'lgani uchun kuchli sho'rlangan qishloq xo'jaligida foydalaniladiga zararkuranda hashoratlarga qarshi qo'llaniladiga pestisit va gebisirlar bilan sanoat va ishlab chiqarish sohalarning ifloslangan suvlari qo'shilishi natijasida yaroqsiz ahvolga kelgan. Farg'ona vodiysi gidrografik jihatdan berk havza hisoblanadi. Ya'ni suvlari tashqariga chiqib ketmatdigan hudud hisoblanib, faqat bitta Sirdaryo havzasi orqali keraksiz bo'lgan suvlarni olib chiqib ketadi. Cho'llarning barcha kanallari, kalektor va zovurlar, tashlama suvlar Sirdaryoga borib qo'shiladi. Buning natijasida daryo suvi ham ifloslanadi, suvning tarkibi buziladi va suvda yashovchi organizimlarga o'zining salbiy ta'sirni ko'rsatadi [1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov. A.P, Abdurahimov.M.I, Mamatqulov .U.T Sug'oriladigan yerlarni unumdorligini tiklash va oshirish yo'llari// O'zbekiston tuproqroqshunoslari va agrokimyogarlari jamiyatining IV qurultoyi materyallari.-Toshkent.2005
2. Rustamov A.P Markaziy Farg'ona –Toshkent: Mehnat.1995.
- 3 O'z Milliy atlas 1jild.2020
4. <http://www.abrates.narod.ru>